



SURUNKALI O'SIB BORUVCHI RUXIY KASALLIKLAR

¹Eleonora Topvoldievna Mirzajonova

Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi,

²Dostonbek Masharipov

Farg'ona davlat universiteti psixologiya yo'nalishi talabasi.

Email: e.mirzajonova@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7895714>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2023

Accepted: 03rd May 2023

Online: 04th May 2023

KEY WORDS

Shizofreniya, autizm, ruhiyatning ajralishi, hissiy tanglik, gallyutsinatsiya, vasvasa, impulsiv, gebefrenik, katatonik, paranoid, sirkulyar, manikal holat, depressiv holat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada shizofreniya, autizm kabi surunkali o'sib boruvchi (progrediyentli) ruhiy kasalliklar, bunday kasalliklarda bemorlarning xatti-harakati, holati, yurish-turishi, ularning nutqida maqollar, murakkablashgan va o'ta aqlli so'zlar, gaplar ko'payib ketishi, bemorlarda gallyutsinatsiyalar va vasvasalar paydo bo'lishi haqida bayon etilgan.

Shizofreniya – bu surunkali o'sib boruvchi (progrediyentli) ruhiy kasallikdir. Bu kasallikka chalingan shaxsda kasallikka xos o'zgarishlar va turli ruhiy buzilishlar paydo bo'ladi. Shizofreniyada fikrlash va hissiyot faoliyati buzilib, aqliy zaiflik paydo bo'ladi. Bu kasallikning kelib chiqishida asosiy o'rinni irsiy omillar egallaydi. Shizofreniya ko'proq yoshlar (20-25 yosh) da uchraydi. Shizofreniyaning 3 ta asosiy belgisi bor:

1. Autizm
2. Ruhiyatning ajralishi
3. Hissiy tanglik.

Autizm – bu turli shakllarda namoyon bo'ladigan real borliqdan ketish. Bunda bemorlar atrofdagilardan ajralgandek jim yuradilar, odamlar bilan muloqatga kam kirishadilar, rasmiy sovuq muomalada bo'ladilar. Ular bilan suhbat tor doirada chegaralangan bo'ladi. Ayrim hollarda bemorlar niqobda: katta qora ko'zoynak, keng shlyapa, uzun soch-soqol qo'yib yuradilar. Kasallikning og'ir kechishida bemorlar sababsiz o'qish va ishlarini tashlaydilar, uydan chiqmay ko'p vaqtlarini o'rinda o'tkazadilar. Ba'zi hollarda shahardan chiqib ketib o'rmon, tog'larda yashirinadilar. Bunday bemorlar o'zlari bilan ovvora bo'lib, o'z xayollari bilan yashaydilar.

Ruhiyatning ajralishi – bu shunday xolat, kachon bemor bir vaktida ikki dunyoda yashaydi: ichki, o'zi uchun asosiy bulgan, va tashqi real dunyoda. Ruhiyatning ajralishining bir necha turlari bor. Bularga sezgining ikkilanishi (ambivalentlik) va tavsifining ikkilanishi (ambitendentlik) kiradi. Bunday hollarda bemor bir vaqtda bir kishiga yoki bitta ko'rinishga ikki qarama-qarshi his-tuyg'uda bo'ladi. Shu bilan birga bemor ikki xil bir-biriga qarama-qarshi fikr borligini sezadi. Ba'zan bemorlar miyasi ikkita bo'linib, har qaysi bo'lagida o'zicha fikr borligini sezishi mumkin. Yoki bemor o'zini ikkita shaxsga ajraganini his kiladi.



Hissiy tanglik - kasallik boshlanishidan seziladi. Bemor hech narsa bilan qiziqmay qoladi, oila a'zolari va yaqinlariga sovuq muomalada bo'la boshlaydi. Oqibatda bemor atrof-muhitga butunlay befarq bo'lib qoladi.

Shizofreniya bilan kasallangan bemorlarning xatti-harakati, holati, yurish-turishi sun'iy va g'ayri tabiiy bo'lib, kekkayib, gerdayib yuradigan bo'lib qoladilar. Ularning nutqida maqollar, murakkablashgan va o'ta aqlli so'zlar, gaplar ko'payib ketadi. Bemorlarda gallyutsinatsiyalar va vasvasalar paydo bo'ladi. Shizofreniyaning quyidagi shakllari farqlanadi:

Oddiy shakli asosan o'smirlik davrida vujudga keladi. Bunda bemorlarda yakkalanish, ota-onasiga sovuq yoki yomon muomala, atrofdagilarga rasmiy munosabat kuzatiladi. Ular o'z tashqi ko'rinishiga befarq bo'lib qoladilar, turli impulsiv harakatlar ham qilishlari mumkin. Shizofreniyaning bu shaklida vasvasa g'oyalari va gallyutsinatsiyalar bo'lmaydi. Kasallik boshlangach 3-5 yil o'tgach og'ir ruhiy nuqson rivojlanadi.

Gebefrenik shaklida birinchi o'rinda ahmoqlik va tajovujkorlik turadi. Bemorlar o'zini masxarabozga o'xshab tutib, atrofdagilarga tegajoqlik qilib ularda mayda ko'ngilsizliklar keltirib chiqaradilar, keksalarning ustidan kuladilar. Bunday bemorlar ko'pincha bemehrlik namoyon qiladilar va jinnilik qilib, qonli jinoyatlar sodir qilishlari mumkin. Shizofreniyaning bu shakli kam uchraydi, ko'pincha o'smirlik davrida kuzatiladi. U xavfli kechadi va ruhiyatning og'ir nuqsoni rivojlanadi.

Katatonik shaklida ruhiyat buzilishi mushak tonusi o'zgarishi bilan kechadi. Bu shakli turli yoshda uchrashi mumkin. Bunda bemorlarda katatonik stupor yoki katatonik qo'zg'alish belgilari uchraydi. Harakatlarning qovushmaganligi yoki katatonik kelib chiqishga ega bo'lgan impulsiv qo'zg'alishlar kuzatiladi.

Paranoid shakli ko'pincha 20-25 yoshdan keyin rivojlanadi va vasvasa g'oyalari, gallyutsinatsiyalar paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu davrdan boshlab shaxs o'zgarishi - uning odamoviligi paydo bo'ladi. Turli xil mazmunli tartibsiz vasvasa g'oyalari, eshitish illyuziyalari va soxta gallyutsinatsiyalar kuzatiladi.

Sirkulyar shaklida manikal va depressiv holatlar ketma-ket kelishi yoki almashinishi kuzatiladi. Bunda vasvasa g'oyalari va gallyutsinatsiyalar paydo bo'ladi va har xurujdan so'ng ruhiyat nuqsoni chuqurlashadi. Shizofreniyaning bu shakli nisbatan ijobiy kechadi va bemorlar bir necha yil davomida ish qobiliyatini saqlab qoladilar.

Shizofreniya kechishi bo'yicha 3 turga bo'linadi:

- Uzluksiz kuchayib boruvchi;
- Davriy;
- Uzilib-uzilib kuchayib boruvchi.

Shizofreniyaning uzluksiz kuchayib boruvchi turida ko'p bemorlarda umumiy bo'shshish, holsizlik, es-hushning, mehnatga bo'lgan layoqatning yo'qolishi, tashqi voqealarga nisbatan befarqlik, sovuqqonlik uchraydi. Shizofreniyaning uzluksiz kuchayib borishi bilan kechishi ko'pincha yomon natija bilan tugaydi.

Shizofreniyaning davriy kechishi doimo ham chuqur o'zgarishlarga olib bormaydi. Uzoq vaqt davom etgan remissiya (tuzalib turish) jarayonidan keyin bemor yengil ishlar bilan shug'ullanishi mumkin. Shizofreniyaning davriy kechishida katatonik, paranoid va sirkulyar shakllari yuzaga chiqadi.



Uzilib-uzilib kuchayib boruvchi turida gebefrenikdan katatonik buzilishlar ustun bo'ladi. Bu turida klinik ko'rinishlari og'irlashib boradi. Bu turda ham his-hayajonning yo'qolishi, mehnatga ishtiyoqning pasayishi kuzatiladi.

Shizofreniya kasalligi bilan kasallangan bemorlar gallyutsinator va vasvasaviy kechinmalar ta'sirida, asosan buyruq shaklida bo'lsa, tan jarohati yetkazishi va atrofdagilarga xavf tug'dirishi mumkin. Vasvasaning ba'zi shakllarida bemorlar shifokorlar hayotiga xavf solishi mumkin, chunki ular bemorni ataylab ruhiy kasalliklar shifoxonasida ushlab turgandek yoki xastaligini og'irlashtirib o'ldirayotgandek tuyuladi.

O'tkir va surunkali ruhiy buzilishlar, shizofreniya bilan xastalanganlar fikrlashini baholash, ularning harakatlari natijasini tushunish va nazorat qilish bilan baholanadi. Psixik buzilish holatida bajarilgan fuqarolik aktlari noqonuniy hisoblanadi va yuridik kuchga ega emas. Fikrlash qobiliyati tug'risidagi masala turlicha hal etiladi, ko'pincha aniq ruhiy buzilish holatlarida ham ular ishga yaroqli, oilaviy hayot kechirib va ishlashda davom etadilar.

References:

1. M.N.Majidov "Umumiy nevrologiya". Toshkent 1995-296 bet.
2. V.F.Matveyev "Meditsina psixologiyasi, etikasi va deontologiyasi" 1991y.
3. Z.Ibodullayev "Tibbiyot psixologiyasi" Toshkent-2008 yil.
4. Н.М.Мажидов, В.Д. "Профилактик неврология" монография 1996-1998 г.
5. Mirzajonova E., Kiselev S. Motor sequencing training has a positive effect on sensorimotor functions in preschool children //Psychophysiology. – 2020. – т. 57. – с. s71-s71.
6. Мирзажонова Э.Т. и др. Системность социокультурной адаптации детей с особыми потребностями как условие эффективности //Актуальные вопросы современной психологии, конфликтологии и управления: взгляд молодых исследователей. – 2020. – С. 5-15.
7. Mirzajonova E., Kiselev S. Weakness of Memory in Delayed Recall Condition is Specific Deficit in Children with ADHD //Annals of Neurology. – 2020. – Т. 88. – С. S69-S69.
8. Mirzajonova E., Kiselev S. AGE-RELATED DIFFERENCES IN VISUAL OBJECT RECOGNITION IN CHILDREN //Psychophysiology. – 2020. – Т. 57. – С. S38-S38.
9. Mirzajonova E., Kiselev S. Child with hemorrhagic stroke in the right fronto-parieto-temporal area benefited from visuospatial therapy //Quality of life research. – 2020. – Т. 29. – №. SUPPL 1. – С. S189-S189.
10. Mirzajonova E., Kiselev S. Yoga training as an effective approach for improving the executive abilities in children with ADHD //Quality of life research. – 2020. – Т. 29. – №. SUPPL 1. – С. S183-S183.
11. Mirzajonova E. ACTUAL PROBLEMS OF INCLUSION IN THE CONTEXT OF SOCIAL PARTNERSHIP. Uzbek Scholar Journal. 2022/5/28. 96-101 pages.
12. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11| Issue-1| 2023. 217-225 pages.



13. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
14. Водяха С.А., Мирзажонова Э.Т. //Профессионально-психологическое сопровождение детей с особыми потребностями как условие их благополучной социализации// Психологическое благополучие современного человека. – 2019. – С. 631-635.
15. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Rasuljon Raxmonali o'g'li Tilavoldiyev //O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH
16. MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 660-669 pages.
17. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Dostonbek Muxtarjon o'g'li Masharipov //INKLYUZIV TA'LIM OLAYOTGAN BOLALARNING O_ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK O'RGANISH// INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference 25 th March, 2023. Washington, USA: "CESS", 2023. Part 28. 192-199 pages.
18. Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna, Xomidov Abdullajon Adxam o'g'li //ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ, ОБУЧАЮЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue-1. 2023. 217-223 pages.
19. Элеонора Мирзажонова, Абдуллажон Хомидов //КОМПЛЕКСНОСТЬ И ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДОШКОЛЬНИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РАЗВИТИЯ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 4 (100), часть 1. ноябрь, 2022 г. 232-237 стр.
20. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 9-SON. 20.06.2022. 211-217 betllar.
21. Eleonora Topvoldiyevna Mirzajonova, Hamdamov Izzatbek Toshmamat o'g'li //TALABALARNI VATANPARVARLIK TARBIYASI JAMIYAT HAYOTIYLIGINING AXLOQIY ASOSI SIFATIDA// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 30 IYUN / 2022 YIL / 20 – SON. 89-92 betlar.
22. Мирзажонова Элеонора Топвoldиевна //СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЭТНОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 49-55 betllar.
23. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova //Gender equality as a condition and result of increasing the social activity of women// Zien Journal of Social Sciences and Humanities. 07-10-2022. 1-4 pages.
24. Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Eleonora Topvoldievna Mirzajonova //The role of psycho-oncology in the treatment of cancer patients// Texas Journal of Medical Science. 18-06-2022. 14-17 pages.



25. Eleonora Topvoldieva Mirzajonova, Khomidov Abdullajon Adham oglu //To study the practical problems of attention and memory processes in children with speech defects// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 17-06-2022. 130-135 pages.
26. O.R.Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //SCHIZOPHRENIA DISEASE// Международный научно-практический журнал “Теория и практика современной науки” Выпуск №6 (48) – 2019. 18-21 стр
27. O.R.Parpiyeva, Ostanaqulov A.D //Thoughts that do not go away from the brain// Международный научно-практический журнал “Мировая наука” Выпуск № 6 (27) – 2019. 9-12 стр
28. Parpieva Odinakhon Rakhmanovna, Ostanaqulov Alijon Dadajon Ugli, //Mental-emotional Disorders in Patients with Oncological Disiases// EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Volume: 7/ Issue: 4/ April 2021. 232-235 page.
29. Абдуллаева А. //ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ФАКТОРЛАРНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// МУАЛЛИМ ЖУРНАЛИ. 11 ЖИЛД. 2022 ЙИЛ.
30. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.
31. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December). 472-475.
32. Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна, Тошболтаев Салоҳиддин Хамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.
33. G'aniyeva Xalimaxon Akhmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.
34. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.
35. А.Абдуллаева Н.Тошболтаева //ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ// FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 April 2023. Part 18. 27-32 pages.